

NAVOIY TARKIBANDIDA BADIY MAHORAT

Latipova Jasmina

BuxDU 2-kurs talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiy tarkibandida qoʻllangan badiiy sanʼatlar va bu ijod mahsulidagi mazmuni va shoirning badiiy mahorati talil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** tarkiband, tanosub, tazod, tamsil, mahorat, badiiy sanʼatlar, falsafa

**Annotation:** This article describes the compositional poem form, the artistic arts used in Navoi's composition, and the content of this creative product, as well as Navoi's philosophical views that are included in the composition.

**Key words:** composition, proportion, contrast, representation, skill, fine arts, philosophy

“Tarkibband (arab. – tuzilish, band) – bir vaznda yozilib, gʻazal tarzida (taxallussiz) qofiyalanadigan, har banddagi baytlar soni teng boʻlgan, har band oxirida bir bayt alohida qofiyalanib keladigan sheʼr shakli. Lekin takrorlanib turuvchi baytlar saqlansada, bandlar miqdori turli shoirlarda turlicha. Tarkibband murakkab tuzilishga ega boʻlib, shoirdan alohida mahorat va tajriba talab etadi. Tarkibband fors-tojik adabiyotida IX-XII, oʻzbek adabiyotida XV-asrdan yozila boshlagan. Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Nodira va boshqa tarkibandda ijod qilishgan”<sup>45</sup>

Tarkibband yozish ham alohida bir sanʼat boʻlgan va ijodkordan katta isteʼdod va qobiliyat talab qilgan. Navoiy devonida bitta tarkibband boʻlib, u ham marsiya xarakterida – “ham ota, ham murshidu pir” maqomidagi Sayyid Hasan Ardasher xotirasiga bagʻishlangan. U 7 banddan iborat. Har bandi 7 baytlik gʻazal va undan soʻng takrorlanib kelgan baytdan tashkil topgan

Navoiy tarkibbandini falsafiy qarashlari bilan sugʻorilgan, unda dunyo oʻtkinchiligi va hech bir kimsaga vafosi yoʻqligidan ogoh etadi.

Dahr bogʻiki jafo shoridur har chamani,

Juz vafo ahligʻa sonchilmadi aning tikani.

Yuqorida keltirilgan misralardan dahr bogʻining har chamanida jafoning tikanlari vafo ahliga sonchilgani bilan bogʻliq tasvir keltirilgan. Shoir oʻz fikrini tazod vositasida yuza chiqargan. Tazod “zid qoʻyish, qarshilantirish” degan maʼnoni bildiradi. Tazod maʼno jihatdan oʻzaro zid, qarama-qarshi boʻlgan soʻzlarni qoʻllashga asoslangan sheʼriy sanʼat. Nazm va nasrda keng qoʻllaniladi. Mazkur misralarda shoir jafo – vafo soʻzlari orqali dahrning badiiy manzarasini chizishga erishgan. Boisi, dahrdaga har bir hodisa- holatning qutbiy qirralari mavjud. Keyingi misralarda shoir oʻz fikrini asosovchi dalilni keltiradi.

Rostlar boʻlsa aning arsasida barxoʻrdor,

Javrdin, bas, nega bebarlik erur sarvi fani.

<sup>45</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarkibband>

Arsa – bino quriladigan maydon, yer sahni, chegara; barxoʻrdor – baxtiyor, xursand; bebarlik – mevasizlik.

Rostlar – hayotda toʻgʻrilikni kasb qilgan kishilar. Bunday kishilarni esa dahr hamisha oʻzining javri bilan “mukofotlaydi”. Alisher Navoiy mazkur gʻoyani tamsil sanʼati bilan dalillaydi. Sarv tik va toʻgʻri oʻsuvchi daraxt hisoblanadi. Lirik ijodkorlar koʻp holda yorining qad-u qomatini sarvga oʻxshatadilar. Bu oʻrinda esa rost soʻzlovchi insonlar maʼnosini ifodalash uchun sarvga murojaat etilmoqda. Bu yerda tamsil sanʼati qoʻllangan, yaʼni hayotda uchraydigan hodisa – sarvning hosil bermaydigan daraxt ekanligi bilan dalillangan.

Bahri urfon duri Sayyid Hasan ulkim aflok,  
Etti durji aro bir koʻrmadi andoq duri pok.

Bu oʻrinda Sayyid Hasan haqida soʻz boradi: u ilm dengizing oliy duri edi, va yetti sadaf qutichasida ham unday sadaf topilmas edi. “Ardasher Sayid Hasan – turkiy shoir, olim. Ardasherining otasi temuriylardan Boysunqur Mirzo xizmatida ov qushlarini oʻrgatuvchi boʻlib, qushbegilik lavozimigacha koʻtarilgan. Shuning uchun Ardasher oʻz ismiga „sayid“ laqabini qoʻshgan. Arab tili, badeʼ ilmi, tarix, musiqa nazariyasi, sheʼr sanʼatini chuqur bilgan. Turkiy, fors tillarida ijod qilgan. Navoiy bilan Mashhadda tanishgan, uning ijodiy kamolotiga katta taʼsir koʻrsatgan. “Bu faqirgʻa ota masoba (daraja)sida erdi“, – deb yozgan edi Navoiy “Majolis un-nafois“da. Shu kitobida Navoiy Ardasher haqida maʼlumot beradi, uning bir qitʼa va bir baytini namuna sifatida keltiradi. Ardasher ijodidan boshqa asarlari bizgacha yetib kelmagan.”<sup>46</sup>

Zoli gardun kishiga mayli vafo aylamadi,  
Kimda-kim koʻrdi vafo, gʻayri jafodan aylamadi.

Bu misralarda ham dunyoning shafqatsizligi, bemehr-u berahmliigi aytilgan. Zoli gardun, yaʼni dunyo kampiri kishiga vafo maylini qilamadi, agar kimda-kim vafo koʻrgan boʻlsa-da, unga keyin yana jafodan boshqasini qilmadi.

Qaysi labtashnagʻa tutti qadahi sof nishot  
Kim, yana qismi aning durdi ano aylamadi.

Qaysi labtashnaga xursandchilik qadahini (hayot) tutgan boʻlsa-da, oxiri yaʼni qadahning tubi durdi ano – azobning quyqasi boʻldi,- degan xulosani beradi buyuk shoir. Nishot (xursandlik) va ano (azob, mashaqqat) tazoddir. “Odamni dard tarbiyalaydi va toblaydi, gʻam uning botinini muvaqqat, chirkin hirs-u havaslardan tozalaydi. Shu boisdan ham dard ahli va iztirob vakillari zuhd, taqvo, ishq, maʼrifat ahlidan ham oldin qoʻyilgan. Shu oʻrinda bir narsani izohlab oʻtaylik. Gʻam va dard oʻtmishda hamma joyda, hamma vaqt ham ijobiy mazmunda qoʻllanilmagan, albatta. Ular odamning vujudi, sogʻligi hamda ahvoliga yomon taʼsir oʻtkazishi isbot talab qilmaydi. Ichini gʻam tilgan kishining umri qisqardi. Ranj-u azobi kamayganning hayoti uzun boʻldi”<sup>47</sup>

Garchi ul ravzai rizvon sari raftor etti,  
Hajridin umrni ahbobqa dushvor etti.

<sup>46</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ardasher\\_Sayid\\_Hasan](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ardasher_Sayid_Hasan)

<sup>47</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohimi-haqqul-navoiy-sheriyatida-dard.html>

Garchi u Jannat tomon yo'l olgan bo'lsa-da, endi do'st-yorlariga (bizga) hajri bilan qiyin qildi, ya'ni endi bu ayriliqdan ko'nglimiz g'amda demoqchi. Bundan anglashimiz mumkinki, u Navoiy uchun qalbiga yaqin insonlardan bo'lgan. "Sayyid Hasan shunday inson ediki, deydi Navoiy, ipak bilan namat o'rtasida tafovut ko'rmaydigan darajada nafsini mahkam jilovlagan edi. Har qancha iztirob yuzlanmasin, sabr bilan yengardi deydi. Sayyid Hasan Ardasher Navoiyni farzandim deb alqashini shoir faxr bilan ta'kidlaydi."<sup>48</sup>

Garchi ul bordi baqo mulkiga, lekin yuz alam

So'gidin charxi fano ahlig'a izhor etti.

Garchi uning o'zi boqiy dunyoga rihlat qilgan bo'lsa-da, lekin foniy, o'tkinchi dunyoga motamini izhor qildi, bildirdi. Baqo va fano tazod, misralar o'rtasida ham o'zaro ziddlik bor. Xursand bo'ladigan tarafi uni dunyo mashaqqatidan qutulib baqoga ketgani, achinarlisi esa u olamg'a a'za e'lon qildi, ya'ni yaqinlari uni to qiyomatga qadar ko'ra olmaydi. Shu bois sog'inchdan yuz alam tuyishadi.

Manga zulm o'ldi falakdinki chu bo'ldung bemor,

Kerak erdiki men o'lsam boshing uzra g'amxor.

Menga falakdan zulm bo'ldi, sababi sen bemor bo'lding, sening o'rningga men o'lsam bo'lmasmidi deydi shoir. "Xalq hayoti haqida o'ylash, u haqda g'amxo'rlik qilish shoir va mutafakkirning doimiy diqqat markazida kechdi. Uning fikricha, inson hamisha yashash va baxtli bo'lishga haqlidir. Navoiy insonlar haqida g'amxo'rlik qilishni eng oliyanob insoniy fazilat, haqiqiy odamiylikning mezoni deb bildi."

Olami foniy uchun ranju mashaqqat chekmang,

Mol uchun g'am yemangiz, fikri manol aylamangiz.

Bu misralarni nasihat o'laroq tilga olsa bo'ladi. Bu foniy olam uchun ranj-u mashaqqat chekmang, mol-dunyo haqida o'ylamang deya ta'kidlaydi. "Navoiyning fikricha, mansab va ulug'lik insonga hos xususiyatdir. Inson ongi hamisha yuksak martaba, mansabga intilish bilan band bo'ladi. Mansab g'aflatni kuchaytiradi: mansabdorni o'rab olgan kishilarning iltifot va mulozamatlaridan u mast bo'ladi, amalni o'tkinchi va bevafo ekanligini unutib qo'yadi. Shuning uchun ham deydi Navoiy, kishi mansab va martabaga erishgach, xudbinlik va xudpisandlikka berilmasligi, mazlumlar dardiga malham bo'lishi, podsho manfaati, xohish-irodasini amalga oshirishga intilishi, agar bordiyu podshohning hatti-harakatlari va siyosati shariat ahkomlari va iymon-e'tiqod talablariga zid bo'lsa, u holda podshoga muloyimlik bilan arz qilib, uning xizmatidan ketishi kerak deb hisoblaydi".<sup>49</sup>

Navoiy asarlari o'zining betakror ruhiyati bilan ajralib turadi. Uning falsafiy qarashlari, hayot, borliq haqidagi fikrlari asrlar o'tib o'zgarmaydi, shuning uchun ham uning asarlarini sichkov nigoh ila tadqiq qilish avloslar uchun juda muhimdir. "Alisher Navoiy soxta dindorlik, dindand o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanish, botiniy olamga qaramay, zohiriy rasm-rusumlarni bajarish bilan kerilish, riyokorlik, shavqatsizlikni qoralaydi. Inson avvalo yaxshi axloqi, niyatining (himmatining) ulug'vorligi, ilohiyligi bilan inson. Agar

<sup>48</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/shuhrat-sirojiddinov-navoiyning-dostlari.html>

<sup>49</sup> ALISHER NAVOIYNING FALSAFIY QARASHLARI Qahramon Madrimov O'zDMSI, "Musiqali, dramatik teatr vakino san'ati kafedrasini o'qituvchisi maqolasi

bunday bo'lmasa, yani kishi qalbida ezgulikka, hayrga muhabbat bo'lmasa, uning iymoniga ishonish qiyin. Iymon botiniy olamning tozaligi va butunligi, haqqa yaqinligini namoyon etib turishi kerak.”<sup>50</sup>

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy nafaqat adabiyotshunos, balki faylasuf, olim sifatida yaqqol ko'zga ko'rinadi. Yetuk ilm sohibi bo'lganligi sababli asarlari o'lmasdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarkibband>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ardasher\\_Sayid\\_Hasan](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ardasher_Sayid_Hasan)
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/ibrohim-haqqul-navoiy-sheriyatida-dard.html>
4. “Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari”,Qahramon MadrimovO'zDSMI, “Musiqali, dramatik teatr vakino san'ati kafedrası”o'qituvchisi maqolasi.
5. <https://adu.uz/uz/news/article/2310>

---

<sup>50</sup> <https://adu.uz/uz/news/article/2310>